

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незаймакин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Ayollar migratsiyasi va oilaviy struktura: O'zbekiston tajribasi asosida gender tahlil

Bakirova Oynura Norquchqor qizi

Женская миграция и структура семьи: гендерный анализ на опыте Узбекистана

Бакирова Ойнура Норкучкор кизи

Women's migration and family structure: gender analysis based on the experience of Uzbekistan

Bakirova Oynura Norquchqor qizi

Received: May 7, 2025 Revised: May 9, 2025 ■ Accepted: May 12, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayollar mehnat migratsiyasining O'zbekistondagi rivojlanish tendensiyalari, migratsiyaning oilaviy struktura va ijtimoiy-psixologik holatga ta'siri gender nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqotda erkak va ayol migrantlar motivatsiyasidagi strukturaviy farqlar ochib berildi, migratsiyaning bolalar, qarindoshlar va nikoh institutiga ta'siri ilmiy asosda yoritildi. Ayol migrantlarning mehnat va yashash sharoitlari, sog'liq va ta'lim imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning huquqiy himoyasi va xavfsizligini ta'minlashdagi mavjud muammolar aniqlangan. Genderga asoslangan migratsiya siyosatini ishlab chiqish zarurati asoslab berildi hamda xalqaro tajribalar kontekstida O'zbekiston uchun takliflar ilgari surildi. Tadqiqot natijalari gender tengligini mustahkamlash va migratsiya jarayonlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.
- **Kalit so'zlar:** Ayollar migratsiyasi, oilaviy struktura, gender tahlil, ijtimoiy-psixologik ta'sir, migratsiya va bolalar, huquqiy himoya, ayol migrantlar, genderga asoslangan siyosat, O'zbekiston tajribasi.
- **Аннотация:** В данной статье проведен гендерный анализ тенденций роста женской трудовой миграции в Узбекистане, а также влияния миграционных процессов на структуру семьи и социально-психологическое состояние общества. Исследование раскрывает структурные различия в мотивации мужчин и женщин-мигрантов, научно обоснует воздействие миграции на детей, родственников и институт брака. Проанализированы условия труда и жизни женщин-мигрантов, доступ к медицинским и образовательным услугам, выявлены проблемы обеспечения правовой защиты и безопасности. Обоснована необходимость разработки гендерно-ориентированной миграционной политики, а также представлены предложения по применению международного опыта в контексте Узбекистана. Результаты исследования направлены на укрепление гендерного равенства и устойчивое развитие миграционных процессов.
- **Ключевые слова:** Женская миграция, структура семьи, гендерный анализ, социально-психологическое воздействие, миграция и дети, правовая защита, женщины-мигранты, гендерная политика, опыт Узбекистана.
- **Abstract:** This article presents a gender-based analysis of the growing trends in female labor migration in Uzbekistan and examines the impact of migration processes on family structure and the socio-psychological state of society. The study highlights structural differences in the motivations of male and female migrants and scientifically substantiates the influence of migration on children, relatives, and the institution of marriage. The working and living conditions of female migrants, their access to healthcare and education, and existing challenges regarding legal

protection and security are analyzed. The necessity of developing gender-sensitive migration policies is justified, with proposals made for adapting international best practices to the context of Uzbekistan. The research findings are aimed at strengthening gender equality and ensuring the sustainable development of migration processes.

- **Keywords:** Female migration, family structure, gender analysis, socio-psychological impact, migration and children, legal protection, female migrants, gender-based policy, Uzbekistan experience.

KIRISH

Global mehnat migratsiyasi zamonaviy dunyoning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlaridan biri bo'lib, u nafaqat ishchi kuchi taqsimotiga, balki oilaviy struktura, gender munosabatlari va jamiyatdagi demografik dinamikaga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda ayollar ishtirokining ortib borishi esa migratsiyani yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil holatiga ko'ra, xalqaro miqyosda 281 million migrant mavjud bo'lib, ularning 48 foizdan ortig'i ayollarni tashkil etadi [1]. Bu esa ayollar migratsiyasi o'ziga xos mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Ayollar migratsiyasi o'z mazmuni, harakat omillari va oqibatlarini jihatidan erkaklar migratsiyasidan sezilarli darajada farq qiladi. Ayol migrantlar ko'pincha mehnat bozori chekkasidagi zaif qatlamni tashkil etib, ular sog'liq, ta'lim, ijtimoiy xizmatlar va huquqiy himoya borasida tizimli to'siqlarga duch keladilar. Shu bilan birga, ayollar tomonidan qabul qilinayotgan migratsiya qarorlari ko'proq oilaviy ehtiyojlar, farzandlar kelajagi va gender rollaridagi bosim bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, post-sovet davlatlari, jumladan O'zbekistonda bu jarayon murakkab ijtimoiy-iqtisodiy fon va madaniy-gender stereotiplar fonida kechmoqda.

O'zbekistonda ayollar mehnat migratsiyasi so'nggi o'n yillikda jadal sur'atda ortib bormoqda. Bandlik va Mehnat Munosabatlari vazirligining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, xorijda vaqtincha mehnat qilayotgan o'zbekistonlik ayollar soni 450 mingdan oshgan va bu umumiy migrantlar ichida 15–17% ulushni tashkil etmoqda [2]. Ushbu ayollarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Janubiy Koreya va Birlashgan Arab Amirliklarida vaqtincha ishlamoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar migratsiyasiga undovchi asosiy omillar — mahalliy ish o'rinlarining yetishmasligi, past maoshlar, iqtisodiy bosim va oila ehtiyojlarining ortib borishidir. Ayniqsa, 2020-yildan keyingi inflyatsion bosim va rasmiy bandlik darajasining yetarli emasligi bu jarayonni kuchaytirgan.

Ayollar migratsiyasi nafaqat iqtisodiy oqim, balki oilaviy strukturaning qayta shakllanishiga ham bevosita ta'sir qiladi. Migratsiyaga ketgan ayol o'rnini oila ichida boshqa qarindoshlar to'ldiradi, natijada bola tarbiyasi, qarindoshlik aloqalari va nikoh barqarorligida sezilarli o'zgarishlar yuz

beradi. Bu jarayon ko'p hollarda oiladagi gender rollarining qayta taqsimlanishiga olib keladi. Bunday transformatsiya esa jamiyatdagi umumiy ijtimoiy barqarorlik, bolalar psixologik holati va gender tengligi tamoyillariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola aynan shunday masalalarni tizimli tarzda yoritishga yo'naltirilgan. Maqolaning asosiy maqsadi — O'zbekiston tajribasi asosida ayollar mehnat migratsiyasining o'sib borayotgan tendensiyalarini gender nuqtayi nazardan tahlil qilish, migratsiyaning oilaviy struktura va ijtimoiy-psixologik holatga ta'sirini ochib berish, erkak va ayol migrantlar motivatsiyasidagi farqlarni aniqlash, bolalar va qarindoshlar hayotidagi o'zgarishlarni baholash, shuningdek, ayol migrantlar xavfsizligi va huquqiy himoyasidagi mavjud muammolarni ko'rsatishdan iborat. Shu bilan birga, maqolada genderga asoslangan siyosat zarurati asoslab beriladi hamda xalqaro tajriba kontekstida O'zbekiston uchun mos takliflar ilgari suriladi.

Ayollar mehnat migratsiyasining o'sib borayotgan tendensiyasi

So'nggi yillarda ayollar mehnat migratsiyasi global miqyosda ortib borayotgan jarayon sifatida kuzatilmoqda. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) 2022-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 135 milliondan ortiq ayol xalqaro migrant sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu umumiy migrantlar sonining qariyb 48 foizini tashkil etadi. Ayollarning xorijda ish faoliyatini yuritishi ularning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rolini ham sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Ayniqsa, past va o'rta daromadli mamlakatlarda bu tendensiya mehnat bozoriidagi gender nomutanosiblik, aoshlar tengsizligi va oilaviy bosimlar fonida kuchaymoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston ham bu global tendensiyalarning faol ishtirokchisiga aylangan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, xorijda vaqtincha ishlayotgan o'zbekistonlik fuqarolar soni 2,9 million kishidan oshgan bo'lib, ularning 16,2 foizini ayollar tashkil etmoqda.

2015-yilda bu ko'rsatkich 8–9 foiz atrofida bo'lgan. Demak, so'nggi 7–8 yil ichida ayollar mehnat migratsiyasining ulushi qariyb ikki baravar oshgan [3]. Bu o'sish sur'ati respublika hududlari kesimida turlicha bo'lib, ayniqsa Andijon, Naman-gan, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida yuqori dara-jada kuzatilmoqda. Bu viloyatlar iqtisodiy jihatdan zaifroq, norasmiy bandlik darajasi yuqori va gender mehnat bozorida ayollar uchun rasmiy ish o'rinlari nisbatan kam shakllangan hududlar hisoblanadi.

Ayollar migratsiyasining o'sishiga sabab bo'layotgan asosiy omillarni bir nechta asosiy guruhga ajratish mumkin. Bir-inchidan, bu — iqtisodiy omillar: mahalliy mehnat bozorida rasmiy ish o'rinlarining yetishmasligi, ayollar ish haqlarining pastligi, iqtisodiy mustaqillikka intilish ehtiyoji. Ikkinchidan, oilaviy bosim va gender rollari bilan bog'liq ijtimoiy omillar: yolg'iz ayollar, ajrashganlar yoki oilaviy zo'ravonlikdan qocha-yotganlar uchun migratsiya ko'pincha chiqish yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, xorijda ayollar uchun xizmat ko'rsatish sohasi (uy xizmatlari, parvarish, savdo) nisbatan ko'proq talabga ega bo'lib, bu ayollar migratsiyasini rag'bat-lantiruvchi bozorni yaratmoqda [4].

E'tiborga molik jihati shundaki, O'zbekistonda ayollar migrat-siyasi asosan vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lib, ular ko'p hollarda rasmiy agentliklar orqali emas, balki norasmiy yo'llar, tanish-bilishlar orqali ish topib chiqishmoqda. Bu esa ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini keskin zaiflashtiradi. Ayol migrantlar asosan Rossiya Federatsiyasi (64%), Turkiya (12%), Janubiy Koreya (9%) va Birlashgan Arab Amirliklari (6%) ga borishmoqda. Ularning ko'pchiligi uy xizmatlari, farroshlik, do'kon savdosi, parvarish yoki tikuvchilik sohasida ishlaydi. Bunday ish joylari ko'pincha norasmiy, sug'urtalanmagan va ekspluatatsiya xavfi yuqori bo'lgan sektorlar sirasiga kiradi. Shu sababli, ayollar migratsiyasining o'sish sur'atini shun-chaki bandlik yechimi sifatida emas, balki jamiyatdagi ikti-sodiy noaniqlik, gender tengsizlik va mehnat bozorida strukturaviy nomutanosibliklar belgisi sifatida baholash kerak. Bu jarayonni chuqur tahlil qilish va ayollar migratsi-yasini tartibga soluvchi, ularni himoya qiluvchi tizimlarni yaratish O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy siyosati uchun strategik ahamiyatga ega.

Migratsiyaning oilalarga ijtimoiy-psixologik ta'siri

Ayollar mehnat migratsiyasi nafaqat iqtisodiy oqim sifatida, balki jamiyatdagi oilaviy tuzilmalar, psixologik muvozanat va gender munosabatlariga chuqur ta'sir etuvchi ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Migratsiya natijasida ayollar uzoq muddat davomida oiladan ajralgan holda yashashga majbur bo'ladi, bu esa oila ichidagi an'anaviy rollarning qayta taqsimlanishiga olib keladi. O'zbekistondagi an'anaviy jamiyat modelida ayol ko'proq bolalar parvarishi, uy xo'jaligi, kekxa qarindoshlarga g'amxo'rlik qilish kabi funk-siyalarni bajaruvchi subyekt sifatida qaraladi. Migratsiya bu

strukturaning buzilishiga olib keladi va ayol o'rnini boshqa qarindoshlar — ko'pincha buvi, opa-singillar yoki hatto yosh bolalarning o'zlari to'ldiradi [5].

Bu holat o'z navbatida bolalarning psixologik holatiga sal-biy ta'sir ko'rsatadi. 2021-yilda UNICEF tomonidan O'zbeki-standa o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, mehnat migratsiyasida bo'lgan ota-onalarning 68 foizi uzoq muddat farzandlarini boshqa shaxslar tarbiyasiga topshirgan, bu esa bolalarda ijt-i-moiy ishonchning pastligi, xavotirli xatti-harakatlar va o'quv samaradorligining pasayishiga olib kelgan [6]. Qolaversa, ona mehridan uzoqlik, muntazam aloqa yetishmasligi, bolalarga nisbatan befarqlik holatining kuchayishi ularning ruhiy rivo-jlanishiga salbiy ta'sir etmoqda. Bu holat ayniqsa 8–15 yosh oralig'idagi bolalar orasida ko'proq kuzatiladi, chunki bu davrda bola ruhiy va ijtimoiy identitetini shakllantiradi.

Migratsiya nafaqat bolalarga, balki oilaning ichki kommu-nikatsiyasiga ham zarar yetkazadi. Ayolning yo'qligi sababli oiladagi qaror qabul qilish, uy xo'jaligini yuritish va hissiy barqarorlik zaiflashadi. Ba'zi hollarda bu nikoh rishtalarin-ing uzilishi, ajrimlar sonining ortishi yoki erkakning boshqa ayollar bilan yashirin munosabatlar qurishiga olib kelmoqda. Bu esa jamiyatda ayol migratsiyasiga nisbatan salbiy ijtimoiy stigmalar kuchayishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, ayollarning o'zlari ham uzoq muddatli migratsiyaga moslashishda kuchli psixologik bosimni bosh-dan kechirishadi. Yangi til, madaniyat, ijtimoiy muhitga moslashish, yolg'izlik, xorijiy mehnat bozorida diskriminat-siya va xavfsizlik xavotirlari ularning ruhiy salomatligiga sal-biy ta'sir qiladi. 2022-yilda "Caritas Internationalis" tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, Rossiyada ishlayot-gan o'zbekistonlik ayollarning 36 foizi o'zini "doimiy stress" yoki "ruhiy tushkunlik" holatida his qilganligini bildirgan [7]. Bunday psixologik yuk, ayniqsa, huquqiy maqomi zaif bo'lgan, til bilmaydigan yoki huquqiy yordamdan bexabar ayollar orasida yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Ayol migrantlar uchun moslashuv jarayonini yengillashtirish, ularning ijtimoiy izolyatsiyasini kamaytirish, psixologik va huquqiy yordam tizimlarini yaratish genderga asoslangan migratsiya siyosatining ajralmas qismi bo'lishi zarur. Aks holda, ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiruvchi bu jarayon uzoq muddatli psixologik va ijtimoiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Gender bo'yicha strukturaviy farqlar: erkak va ayol migrant-lar motivatsiyasi

Mehnat migratsiyasining gender kontekstida tahlili migrat-sion oqimlar ichki tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy mex-anizmlarni anglash imkonini beradi. Ayniqsa O'zbekiston singari an'anaviy patriarxal jamiyatlarda genderga asoslan-gan migratsion qarorlar inson kapitali, ijtimoiy rollar va oilaviy majburiyatlar tizimida shakllanadi. Ayollar va erkaklarning migratsiyadagi ishtiroki faqat statistik jihatdan emas, balki

motivatsion xarakterlar bo'yicha ham tubdan farqlanadi. O'zbekiston misolida olib borilgan so'nggi kuzatuvlarga ko'ra, chet elda ishlayotgan o'zbekistonlik migrantlar orasida ayollarning ulushi 2017-yildagi 13,5 foizdan 2022-yilga kelib 19,3 foizgacha o'sgan. Ushbu o'sish faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki ayollar motivatsiyasining murakkablik darajasi ortib borayotgani bilan izohlanadi.

Erkak migrantlar orasida asosiy motivatsiya iqtisodiy majburiyatlar bilan bog'liq bo'lib, bu odatda uy-joy qurilishi, kreditlarni to'lash yoki oilani moddiy ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Erkaklar yuqori riskli mehnat sektorlariga (qurilish, sanoat, transport) ko'proq kirib boradi, chunki gender rollari ularga bu kabi faoliyatlarni tabiiy ravishda yuklaydi.

Ayollar esa migratsiyani tanlashda ko'proq murakkab qarorlar tizimi orqali harakat qiladilar. Ularda iqtisodiy motivatsiya

(oilani ta'minlash, daromad topish) bilan bir qatorda ijtimoiy omillar (zo'ravonlikdan qochish, mustaqil hayotga intilish), shaxsiy rivojlanish (ta'lim olish, o'zini namoyon etish) ham muhim rol o'ynaydi. Bu jihatdan ayol migratsiyasi insoniy qadr-qimmat, xavfsizlik va ijtimoiy farovonlik ehtiyojlari bilan bog'langan ko'p o'lchovli fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Genderlik tafovutlar nafaqat motivatsiya sabablarida, balki migratsiyadan kutilyotgan natijalar xarakterida ham sezilarli. Masalan, erkak migrantlar asosan iqtisodiy muvaffaqiyat bilan bog'liq maqsadlarga urg'u bersa, ayollar jamiyatda o'z o'rnini topish, bolalarini mustaqil ta'minlash yoki ijtimoiy erkinlikka erishishni ko'zlaydi. Shu sababli genderga yo'naltirilgan migratsion siyosat nafaqat bandlik siyosati sifatida, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash vositasi sifatida ham ko'rilishi lozim.

1-jadval

Erkak va ayol migrantlar motivatsiyasining taqqoslamasi (O'zbekiston misolida)

MOTIVATSIYA TURI	ERKAK MIGRANTLAR (%)	AYOL MIGRANTLAR (%)
Oila moddiy ta'minoti	81%	69%
Kredit yoki qarzlarni yopish	52%	33%
Mustaqil hayot boshlash	12%	47%
Zo'ravonlikdan qochish	<5%	29%
Farzandlar uchun sharoit yaratish	18%	62%
Shaxsiy rivojlanish (ta'lim, malaka)	9%	38%


Manba: Muallif tomonidan UN Women (2021), IOM Uzbekistan (2023) va ILO (2023) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Izoh: Bu jadvaldan ko'rinadiki, erkaklar migratsiyasida iqtisodiy majburiyatlar ustuvorlik qilsa, ayollar migratsiyasida shaxsiy va ijtimoiy omillar ko'proq rol o'ynaydi. Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, ayollar migratsiyasining murakkabligi genderga asoslangan siyosiy yondashuvni zarur qiladi.

Migratsiyaning bolalar, qarindoshlar va nikohga ta'siri Xalqaro mehnat migratsiyasi nafaqat iqtisodiy tizimlarga, balki oilaviy tuzilmalarga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon ayniqsa ayollar migratsiyasi kontekstida oilaning ichki rollari, bolalar tarbiyasi, qarindoshlik aloqalari va nikoh institutining barqarorligi bilan bog'liq ijtimoiy mexanizmlarni qayta shakllantiradi. O'zbekiston misolida bu masala murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhitda yuz berayotgan demografik o'zgarishlar fonida jiddiy ilmiy e'tiborni talab qiladi.

Birinchidan, ayollar migratsiyasi oilada onalik rolini vaqtincha yoki uzoq muddatga to'xtatib qo'yadi. Natijada, farzandlar parvarishi va tarbiyasi asosan qarindoshlar, ko'pincha buvilar yoki katta yoshli opa-singillar zimmasiga yuklanadi.

Migrant ayollarning farzandlariga kim qaraydi? (O'zbekiston, 2022)




Yuqoridagi grafikda O'zbekistondagi migrant ayollarning farzandlarini kim parvarishlayotgani bo'yicha statistik taqsimot ko'rsatilgan.

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, 2022-yilda chet elda mehnat qilayotgan o'zbekistonlik ayollarning farzandlari asosan buvilar (ona tomoni – 38%, ota tomoni – 21%) tomonidan parvarish qilinmoqda. Ota (14%) va opa/akalar (12%) ham muhim rol o'ynaydi. Ayni vaqtda, 9% holatda qo'shnilar yoki yosh bolali qarindoshlar qarovga jalb qilinadi, hatto 6% bolalar o'zlarini o'zlari boshqarishga majbur qolmoqda. Bu esa oilaning ajralishi bolalarning tarbiyaviy muhitiga qanday xavf solishini yaqqol namoyon qiladi.

Manba: UNICEF Uzbekistan (2021), UNFPA Uzbekistan (2022), muallif hisob-kitobi asosida.

Bunday sharoitda bolalar ta'limidagi nazorat, emotsional aloqaning sustlashuvi va sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan munosabatda bevosita salbiy o'zgarishlar yuz beradi. 2021-yilgi UNICEF O'zbekiston hisobotiga ko'ra, xorijda ishlayotgan migrant ayollarning 61 foizi farzandlarini oilaviy qarindoshlar qaramog'iga qoldirgan, bolalarning 23 foizida esa ijtimoiy-emotsional muvozanat buzilish alomatlarini qayd etilgan. Ikkinchidan, uzoq muddatli migratsiya nikoh institutiga barqarorlik jihatidan tahdid tug'diradi.

Migratsiya va nikoh barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik (O'zbekiston, 2022)



Yuqoridagi grafik migratsiya va nikoh barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tasvirlaydi (O'zbekiston, 2022-yil ma'lumotlari asosida).

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, migratsiyaga qaramay oilaviy birlikni saqlab qolganlar soni 49%ni tashkil etgan bo'lsa, 24% hollarda migratsiya bevosita ajrimga olib kelgan. Yana 18% holat "ajralish yoqasidagi" oilalar sifatida baholangan, ya'ni hissiy yaqinlik zaiflashgan va munosabatlar zo'rg'a saqlanib qolmoqda. Ayni vaqtda, 9% holatda migratsiya natijasida ikkinchi nikoh yoki norasmiy munosabatlar shakllangan.

Manba: UNFPA Uzbekistan (2022), Institute for Demographic Research (2020), muallif umumlashtirgan.

Ayollar va erkaklarning uzoq vaqt bir-biridan ajralgan holda yashashi o'zaro ishonch, hissiy yaqinlik va jinsiy sadoqat kabi jihatlarni zaiflashtiradi. Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, migratsiyaga ketgan erlar yoki ayollarning turmush

o'rtoqlari orasida ajrim darajasi migratsiyasiz oilalarga nisbatan 1,7 barobar yuqori bo'lgan. Bu holat O'zbekistonda ham real muammoga aylanmoqda, ayniqsa ayollar chet elda uzoq muddat qolib ketgan hollarda erkaklarning ikkinchi nikoh tuzishi yoki norasmiy munosabatlarga kirishi ko'paymoqda. Shu sababli migratsiya va nikoh barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiy siyosat doirasida tizimli tahlilni talab etadi.

Uchinchidan, migratsiya jarayonida oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy tarmoqlar ham o'zgaradi. Qarindoshlar o'rtasidagi hissiy aloqalar sustlashib, yaqinlik darajasi pasayadi. Biroq ayrim hollarda, pul o'tkazmalari va moddiy yordam orqali ijtimoiy tarmoqlar mustahkamlanadi, ayniqsa migrantlar tomonidan homiylik qilingan tadbirlar, ma'rakalar va yordamlar orqali mahalliy aloqalar kuchayadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, migrant ayollar har 10 ta holatdan 6 tasida oilaviy qarindoshlariga muntazam pul yuborishni davom

ettiradi, bu esa tarmoqlarning iqtisodiy asoslangan barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, virtual texnologiyalar — masalan, mobil aloqa, ijtimoiy tarmoqlar va videoqo'ng'iroqlar — migratsiya tufayli ajralgan oilaviy munosabatlarni saqlab qolishning zamonaviy vositasi sifatida paydo bo'lmoqda. Biroq bu vositalar hissiy ehtiyojlarni to'liq qoplay olmaydi, ayniqsa yosh bolalar uchun onaning jismonan yaqinligi o'rnini bosmaydi. O'zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya tizimi hali ham migrantlarning oilaviy salomatligi va bolalar ehtiyojlarini yetarli darajada qamrab olmayapti, bu esa oilaviy disfunktsiyaning chuqurlashuviga olib kelmoqda.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar migratsiyasining bolalar, qarindoshlar va nikoh barqarorligiga ta'siri ko'p qirrali va o'zaro bog'liq bo'lgan omillar tizimidan iborat. Ushbu ta'sirlar faqat ijtimoiy-emotsional emas, balki iqtisodiy, madaniy va texnologik omillar bilan murakkab tarzda bog'langan. Shu bois, genderga asoslangan migratsion siyosat doirasida ijtimoiy institutlarning, ayniqsa oilani qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarning kuchaytirilishi zarur.

Ayollar xavfsizligi va huquqiy himoya muammolari

Mehnat migratsiyasi jarayonida ayollar xavfsizligi va huquqiy himoyasi dolzarb global va milliy muammo sifatida qaraladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayol migrantlar ekspluatatsiya, zo'ravonlik, majburiy mehnat va huquqiy noaniqlik xatarlari oldida nisbatan ko'proq zaif holatda bo'ladi. O'zbekiston kontekstida ham ayollar migratsiyasi bilan bog'liq xavfsizlik va huquqiy himoya masalalari o'ziga xos murakkabliklarga ega.

Birinchidan, migratsiya jarayonida ayollar duch keladigan

asosiy xatarlar ekspluatatsiya va jinsiy zo'ravonlik shaklida namoyon bo'lmoqda. IOM O'zbekiston ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda xorijda ishlayotgan ayol migrantlarning kamida 27 foizi mehnat sharoitlarining majburiylik, ish haqi to'lanmasligi yoki zo'ravonlik holatlarini boshdan kechirgan. Ayniqsa uy xizmati, parvarish, restoran va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan ayollar norasmiy mehnat munosabatlari sharoitida huquqsiz qolish xavfi yuqori bo'lmoqda.

Ikkinchidan, ayollarni himoya qiluvchi huquqiy mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan. O'zbekiston 2008-yilda Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) Majburiy Mehnat to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan bo'lsa-da, amaliyotda xorijdagi ayol migrantlarni huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari zaif ishlamoqda. Chet eldagi diplomatik vakolatxonalar tomonidan ko'rsatilayotgan yordam asosan pasport va vizaga oid muammolar bilan chegaralanib qolmoqda, ekspluatatsiya va zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayollarga kompleks yuridik va psixologik yordam ko'rsatish tizimi esa to'liq shakllanmagan.

Xalqaro standartlarga ko'ra, Migrant Ishchilar va Ularning Oila A'zolarining Huquqlarini Himoya Qilish to'g'risidagi 1990-yilgi BMT Konvensiyasi ayollar uchun maxsus himoya choralari ko'rishni nazarda tutadi [8]. Shunga qaramay, O'zbekistonda bu konvensiya ratifikatsiya qilinmagan. Natijada, ayol migrantlarning huquqlarini xalqaro darajada to'liq himoya qilish imkoniyatlari cheklangan qolmoqda.

Quyidagi diagrammada ayollar migratsiyasida uchraydigan asosiy xavf turlari bo'yicha taqsimot keltirilgan:

2-jadval

Ayol migrantlar duch keladigan asosiy xavf turlari (O'zbekiston, 2022)

XAVF TURI	ULUSH (%)
Ish haqi to'lanmasligi	31%
Jismoniy va jinsiy zo'ravonlik	24%
Ish joyida ekspluatatsiya	18%
Huquqiy yordamdan mahrumlik	16%
Majburiy mehnat sharoitlari	11%

Manba: IOM Uzbekistan (2023), UNFPA Uzbekistan (2022) asosida muallif tuzgan.

Izoh: Bu jadvaldan ko'rinadiki, ayollar eng ko'p mehnat ekspluatatsiyasi va to'lov muammolariga duch keladilar, bu esa migratsion siyosatda huquqiy va ijtimoiy himoya mexanizmlarining kuchaytirilishini talab qiladi.

Uchinchidan, O'zbekiston tajribasida ayol migrantlar uchun xavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan das-turlar soni so'nggi yillarda oshgan bo'lsa-da, hali ham tizimli yondashuv yetishmaydi. Masalan, 2021-yilda "Ayollarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish dasturi" doirasida ayrim xorijiy davlatlardagi migratsiya agentliklari bilan hamkorlikda

huquqiy seminarlar o'tkazildi. Biroq bu dasturlar ko'proq qamrov va resurslarni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda migratsiya siyosatini gender asosida qayta ko'rib chiqish, ayollar uchun maxsus huquqiy yordam tarmoqlarini yaratish va xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Xususan, BMT va ILO kabi xalqaro institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish, migratsiyadan oldingi huquqiy bilimlarni oshirish va xorijda ko'mak markazlarini tashkil etish kabi chora-tadbirlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ayol migrantlarning ijtimoiy holati: sog'liq, ta'lim va ish sharoiti

Xalqaro mehnat migratsiyasida ayollar qatnashuvi kengaygan sari, ularning qabul qiluvchi mamlakatlardagi ijtimoiy holati masalasi ham dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Ayol migrantlarning sog'liq, ta'lim va mehnatga oid sharoitlari ko'pincha rasmiy statistik tizimdan tashqarida qoladi, bu esa ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan zaif qatlamga aylantiradi. O'zbekiston ayollari migratsion oqimining ortib borayotganiga qaramasdan, ularning ijtimoiy holatiga oid tahlillar hali ham yetarlicha chuqur yoritilmagan.

Birinchidan, ayol migrantlar eng ko'p mehnat qilayotgan sohalar — bu uy xizmati, parvarish, restoran va tozalash sektorlari — informatsion sektorga kiradi. Ushbu tarmoqlarda mehnat shartnomalari rasmiylashtirilmasligi, mehnat huquqlari kafolatlanmaganligi va nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi ularni ekspluatatsiyaga ochiq holatda qoldiradi. Ayollarning ko'pchiligi og'ir ish sharoitlarida ishlashga

majbur bo'ladi, ayniqsa Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Janubiy Koreya bozorlarida mehnat qilayotganlar orasida bunday holatlar keng tarqalgan. 2022-yilda IOM tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, O'zbekistondan chiqqan ayol migrantlarning 43 foizi ish joyida ortiqcha jismoniy yuklama, haddan tashqari ish soatlari yoki sog'liqni saqlash xizmatlarining mavjud emasligidan shikoyat qilgan.

Ikkinchidan, sog'liqni saqlash tizimi bilan bog'liq muammolar ham ularning zaifligini kuchaytiradi. Norasmiy ishlayotgan ayol migrantlar ko'pincha tibbiy sug'urtaga ega bo'lmaydi, bu esa ularni asosiy diagnostika va davolanish xizmatlaridan mahrum qiladi. Sog'liqni saqlashdan foydalanishda til to'sig'i, hujjatsizlik, yoki moliyaviy imkoniyat yetishmovchiligi asosiy cheklov omillari sifatida ko'rsatilgan. Shu sababli ayollar nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlik muammolari bilan ham tez-tez yuzma-yuz keladilar.

Uchinchidan, ayol migrantlar ta'lim va kasbiy malaka oshirish bo'yicha ham imkoniyatlardan yetarlicha foydalana olmaydi. Ko'p hollarda ular past malakali ishlar bilan cheklanib qoladilar, chunki migratsiyadan avval yetarli axborot-tayyorgarlik bosqichidan o'tmagan, yoki xorijiy davlatdagi kasbiy sertifikatlar tizimiga integratsiyalasha olmagan bo'ladi. Bu esa ularni migratsion mehnat bozorida past o'rinlarda saqlab qolishga olib keladi.

Quyidagi jadvalda ayol migrantlarning ijtimoiy-iqtisodiy zaiflik holatlarini aks ettiruvchi asosiy indikatorlar taqdim etilgan:

3-jadval

O'zbekistonlik ayol migrantlar orasida ijtimoiy-iqtisodiy zaiflik darajalari (2022)

INDIKATOR	ULUSHI (%)
Rasmiy mehnat shartnomasisiz ishlayotganlar	58%
Tibbiy xizmatlardan foydalanmaganlar	41%
Ijtimoiy sug'urtaga ega bo'lmaganlar	63%
Ish haqi past bo'lgan, minimal yashash minimumidan past ishlovchilar	37%
Ta'lim/malaka oshirish kurslarida qatnashmaganlar	72%

Manba: IOM Uzbekistan (2023), UNFPA Uzbekistan (2022) ma'lumotlari asosida muallif tuzgan.

Izoh: Bu jadvaldan ko'rinadiki, ayol migrantlar yuqori darajadagi ijtimoiy va iqtisodiy zaiflik holatiga ega. Xususan, sog'liqni saqlash, mehnat huquqlari va ta'lim imkoniyatlaridagi cheklovlar ularning integratsiyasini qiyinlashtirmoqda. Natijada, O'zbekistonlik ayol migrantlarning ijtimoiy holati

ularning migratsion strategiyalarini davomiy emas, balki zarurat asosidagi, qisqa muddatli yechimlarga aylantirmoqda. Ular ijtimoiy muhofazasiz, sog'lig'ini xavf ostida qoldirib, o'z mehnatini deyarli huquqsiz sharoitda sotishga majbur bo'layaptilar. Bunday holat migratsiyaning ijobiy iqtisodiy samarasini kamaytiradi va gender tenglikka putur yetkazadi. Shu sababli, davlat va nodavlat institutlari tomonidan ayol

migrantlar uchun mo'ljallangan maxsus ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish, tibbiy va huquqiy maslahat markazlarini tashkil etish, migratsiyadan avvalgi tayyorgarlikni kuchaytirish zarur. Bular migratsiyani genderga sezgir, barqaror va ijtimoiy jihatdan muvozanatli jarayonga aylantirishda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Genderga asoslangan siyosatga ehtiyoj

Mehnat migratsiyasi jarayonida ayollarni har tomonlama himoya qiluvchi siyosiy-institutsional yondashuvning mavjud emasligi yoki fragmentar ko'rinishda namoyon bo'lishi global miqyosda gender tengligi tamoyillarini xavf ostida qoldiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollar migratsiyaviy oqimlar ichida eng zaif qatlam sifatida mehnat huquqlari buzilishi, ekspluatatsiya, sog'liq va ta'lim xizmatlaridan cheklanish, shuningdek huquqiy va psixologik yordam infratuzilmasining yo'qligi holatlariga ko'proq duch keladilar. Bu esa migratsiya siyosatini gender nuqtayi nazardan qayta ko'rib chiqishni va genderga sezgir yondashuvlarni davlat siyosatining markaziy elementiga aylantirishni talab etadi.

O'zbekiston sharoitida genderga yo'naltirilgan migratsiya siyosatining zarurati bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, rasmiy statistikaga ko'ra, O'zbekistondan xorijga chiqayotgan mehnat migrantlari orasida ayollar ulushi 2022-yilda 19,3 foizga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2017-yildagi 13,5 foizga nisbatan 5,8 foizlik o'sishni tashkil etadi. Ushbu tendensiya ayollar migratsiyasining son jihatdan emas, balki tizimli va siyosiy e'tiborni talab etuvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisaga aylanganini anglatadi. Ikkinchidan, ayol migrantlar iqtisodiy ekspluatatsiya, ijtimoiy himoyasizlik, huquqiy vakillikdan mahrumlik va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi tufayli mehnat migratsiyasida erkaklarga nisbatan zaifroq holatda bo'lishmoqda. Bu gender tafovutlari davlat migratsiya siyosatining ijtimoiy adolat tamoyillari asosida qayta shakllantirilishini zarur qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi Qonuni (2020) va "Ayollarni qo'llab-quvvatlash milliy dasturi" (2021) kabi hujjatlar gender masalalarini umumiy ijtimoiy siyosat kontekstida yoritgan bo'lsa-da, ular ayol migrantlarga yo'naltirilgan maxsus strategik yondashuvlarni taklif etmaydi. Ayniqsa xorijga chiqishdan avvalgi tayyorgarlik bosqichida genderga yo'naltirilgan huquqiy, psixologik va tibbiy maslahat xizmatlarining sustligi, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatida ayollar xavfsizligini ta'minlaydigan infratuzilmaviy komponentlarning mavjud emasligi ushbu siyosatlarining amaliy samarasini pasaytiradi. Xalqaro amaliyotda genderga sezgir mehnat migratsiyasi siyosatlari aniq indikatorlar, maxsus byudjet, monitoring mexanizmlari va ta'sir o'lchovlari bilan tavsiflanadi, bu jihatlar esa O'zbekiston siyosiy hujjatlarida hozircha izchil aks etmagan.

Genderga asoslangan migratsion siyosatni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun O'zbekiston quyidagi strategik yo'nalishlarni shakllantirishi zarur. Birinchidan, migratsiyadan oldingi majburiy tayyorgarlik kurslariga gender komponentlarini kiritish va bu kurslarni barcha migrantlar uchun majburiy asosda tashkil etish zarur. Bu orqali ayollar mehnat qonunchiligi, xavfsizlik, sog'liq va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish borasida yetarli bilimga ega bo'ladi. Ikkinchidan, xorijiy davlatlarda ayollar uchun maxsus maslahat va himoya markazlari tashkil etilishi lozim. Bu markazlar yuridik yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash va tibbiy maslahat xizmatlarini ko'rsatish orqali ayol migrantlarning xavfsizligini ta'minlaydi. Uchinchidan, mehnat shartnomalarining rasmiylashtirilishi, ijtimoiy sug'urtaning mavjudligi, xavfsiz transport va yashash joylari bo'yicha kafolatlar mexanizmini yaratish orqali ayol migrantlarning iqtisodiy va huquqiy zai-fligini kamaytirish mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, genderga yo'naltirilgan siyosat mehnat migratsiyasida ayollarni faqat zaif qatlam sifatida emas, balki iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi subyektlar sifatida tan olishga yordam beradi. Masalan, Filippin hukumati tomonidan tashkil etilgan Overseas Workers Welfare Administration (OWWA) agentligi ayol migrantlar uchun maxsus huquqiy tayyorgarlik, sug'urta dasturlari va qaytgan migrantlarni rehabilitatsiyalash xizmatlarini yo'lga qo'ygan. Xuddi shuningdek, Shri-Lanka hukumati 2013-yildan boshlab xorijga chiqayotgan ayollar uchun tripartit (migrant-ish beruvchi-davlat) asosidagi kafolatli shartnomalar tizimini joriy qilgan bo'lib, bu tajriba ekspluatatsiya va huquqiy noan-iqliklarni sezilarli kamaytirgan.

O'zbekiston uchun mos yondashuv sifatida genderga aso-slangan migratsion siyosatni davlat strategiyasining ustuvor yo'nalishiga aylantirish, xalqaro konvensiyalarning rat-ifikatsiyasi va milliy siyosatga integratsiyasi, shuningdek ayol migrantlar ehtiyojlariga mos infratuzilmaviy, yuridik va axborot resurslarini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bunday siyosat gender tengligini faqat deklarativ emas, balki amaliy yo'sinda ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston misolida ayollar mehnat migratsiyasining o'sib borishi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tizimlarda muhim tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Migratsiya jarayonida ayollar duch kelayotgan qiyinchiliklar, ayniqsa ijtimoiy zaiflik, iqtisodiy ekspluatatsiya, sog'liq va ta'lim xizmatlaridan foydalanishdagi cheklovlar, huquqiy himoya mexanizmlarining sustligi, migratsiyaning gender o'lchamdagi salbiy oqibatlarini yaqqol ko'rsatib bermoqda. Shu bilan birga, ayollar migratsiyasi moliyaviy mustaqillik, o'zini shaxs sifa-tida namoyon qilish, oilaviy va jamiyatdagi iqtisodiy faollikni oshirish kabi yangi ijtimoiy imkoniyatlarni ham yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, O'zbekistonda genderga sezgir migratsiya siyosatining yetishmasligi ayol migrantlar holatining zaiflashuviga sabab bo'lmoqda. Migratsiyadan oldingi tayyorgarlik kurslarining zaifligi, huquqiy va tibbiy yordamning yetarlicha ta'minlanmaganligi, norasmiy mehnat sharoitlarida ishlashga majburiyat ayollar migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini salbiy tomonga og'dirgan. 2022-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonlik ayol migrantlarning 58 foizi rasmiy mehnat shartnomasiz faoliyat yuritayotgani, 41 foizi esa tibbiy xizmatlardan foydalana olmagan qayd etilgan. Bu esa gender asosidagi ijtimoiy himoya siyosatining kuchaytirilishini dolzarb masalaga aylantiradi.

Genderga asoslangan migratsiya siyosatining rivojlanishi uchun O'zbekiston xalqaro tajribadan samarali foydalaniishi muhimdir. Filippin va Shri-Lanka tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, migratsiyadan oldingi majburiy treninglar, xavfsiz mehnat muhitini kafolatlovchi mexanizmlar, va xorijda faoliyat yurituvchi ijtimoiy maslahat markazlari ayol migrantlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. O'zbekiston uchun esa bu yondashuvlar milliy sharoitlarga moslashtirilgan holda joriy etilishi, migratsiya siyosatining ajralmas qismi sifatida gender tengligini amalda ta'minlashni ko'zlagan strategiyalar ishlab chiqilishi talab qilinadi.

Kelajak istiqbollari shuni ko'rsatmoqdaki, agar ayollar migratsiyasida genderga yo'naltirilgan siyosiy mexanizmlar kuchaytirilsa, bu jarayon faqat zaifliklarni kamaytirish bilan chegaralanmaydi, balki ayollarning iqtisodiy o'sishga, oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga va jamiyatda ijtimoiy tenglikni rivojlantirishga qo'shadigan ijobiy hissasini yanada oshiradi. Shu bois, ayol migrantlar masalasiga gender iqtisodiyoti tamoyillari asosida tizimli yondashish, migratsiya siyosatining inklyuziv va adolatli modelini yaratish O'zbekistonning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilishi lozim.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Bakirova Oynura Norquchqor qizi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti. Jahon iqtisodiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti / Бакирова Ойнура Норкучкор кизи. Университет мировой экономики и дипломатии. Студент 1 курса магистратуры по направлению «Мировая экономика» / Bakirova Oynura Norquchqor qizi University of World Economy and Diplomacy. 1st year master's student in the field of world economy.**

► bakirovaoynura054@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0008-5291-1814>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Bandlik va Mehnat Munosabatlari Vazirligi. 2023. Tashqi mehnat migratsiyasi statistik byulleteni. Toshkent.
- [2]. Bandlik va Mehnat Munosabatlari Vazirligi. 2023. Tashqi mehnat migratsiyasi statistik sharhi. Toshkent.
- [3]. Caritas Internationalis. 2022. Women Migrant Workers in the Russian Federation: Risks and Resilience. Moscow: Caritas.
- [4]. International Labour Organization. 2022. ILO Conventions Ratifications for Uzbekistan. Geneva: ILO.
- [5]. International Labour Organization. 2023. Global Estimates on International Migrant Workers: Results and Methodology. Geneva: ILO.
- [6]. International Organization for Migration (IOM). 2022. World Migration Report. Geneva.
- [7]. International Organization for Migration (IOM). 2023. Migration Governance Profile: Republic of Uzbekistan. Geneva.
- [8]. Isabaeva, E. 2017. Migration and Family Relations in Central Asia. Central Asian Survey, 36(4), 516–531.
- [9]. Khamidov, S. 2020. Labour Migration Trends in Central Asia. Friedrich Ebert Stiftung.
- [10]. Ministry of Employment and Labour Relations of Uzbekistan. 2021. National Programme on Protection and Support for Women Migrants. Tashkent: Ministry Report.
- [11]. UN Women. 2021. Gender and Migration in Central Asia. Almaty: UN Women Regional Office for Europe and Central Asia.
- [12]. UN Women. 2021. Gender-responsive Labour Migration Policies: Best Practices from Asia-Pacific. Bangkok: UN Women Regional Office for Asia and the Pacific.
- [13]. UN Women. 2021. Women Migrant Workers and the Challenges of Migration. New York: UN Women.
- [14]. UNFPA Uzbekistan. 2022. Gender and Family Dynamics under Labour Migration in Uzbekistan. Tashkent: UNFPA.
- [15]. UNFPA Uzbekistan. 2022. Gender and Social Vulnerability under Labour Migration. Tashkent: UNFPA.
- [16]. UNICEF. 2021. The Impact of Labour Migration on Children Left Behind in Uzbekistan. Regional Study.
- [17]. UNICEF Uzbekistan. 2021. Impact of Labour Migration on Left-Behind Children in Uzbekistan. Tashkent: UNICEF Country Office.
- [18]. United Nations. 1990. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families. New York: UN.
- [19]. United Nations Women. 2021. Women Migrant Workers and the Challenges of Migration. New York: UN Women.